



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

SHAROF RASHIDOVNING “BO‘RONDAN KUCHLI” ASARIDAGI IBORALAR: STILISTIK USLUB VA YOZUVCHINING INDIVIDUAL YONDASHUVI

Abdushukurova Gulrux Abduazizovna,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Tayanch doktorantura(PhD) 1-bosqich doktoranti
ibrohimsabina@umail.uz

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183362>

Annotatsiya: *Mazkur maqolada asarda frazeologik birikmalarning tutgan o‘rni, ularning turli xarakterlarni tasvirlashda o‘zining ixchamligi, siqirligi, ma‘no ifodasining ta‘sirchanligi kabi masalalar yoritilgan. Shu bilan birga, ijodkorning frazemalarni badiiy matnga olib kirishdagi mahorati va undan foydalanish individualligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ibora, frazema, ko‘chma ma‘no, poetik aktuallashuv, mahorat, so‘z qo‘llashdagi individuallik, sillabik tenglik, ekspressivlik, turg‘un birikmalar.*

Ma‘lumki, frazeologizm deganda, ko‘chma ma‘no anglatadigan, ibora yoki turg‘un so‘z birikmalari tushuniladi. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma‘no uning tarkibidagi so‘z komponentlariga xos leksik ma‘nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma‘nosi umumlashma ma‘no sifatida namoyon bo‘ladi¹. Frazeologik iboralar o‘z ma‘nodoshlari bo‘lmish so‘zlarga nisbatan, ma‘noni kuchli darajada ifodalaydi hamda ularda obrazlilikni yorqin aks ettiradi. Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo‘lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o‘ziga xos obrazli ifodalaridir.

O‘zbek tilida alohida o‘ringa ega bo‘lgan iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma‘naviy xazinadir. Iboralar ahamiyati va qo‘llanilishi jihatidan, odatda, so‘zga teng keladi. Iboralar ko‘proq so‘zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ularidan unumli foydalanish nutqning ta‘sirchanligini oshiradi. Frazeologizmlar til hodisasi sifatida lison va nutqqa dahldor birliklardir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma‘naviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi, o‘takasi yorildi, doppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko‘tarmoq va boshqa.

¹Raхmatуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992,3 бет.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Iboralarning tarkibida nechta soʻz ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy maʼno bilan birlashadi va emotsional ekspressiv maʼnoni ifodalaydi. Iboralar badiiy adabiyotda obrazli va taʼsirchan vosita sifatida qoʻllaniladi.² Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalaridir. Shoir va yozuvchilar, odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydilar, balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi maʼno nozikliklari bilan toʻyinib boradi.

Sharof Rashidov nafaqat buyuk siyosat arbobi, balki bir vaqtning oʻzida mohir, soʻzamol yozuvchi, shoir hamdir. U yartagan asarlar xalqchilligi, ohangdorligi, mavzular oʻynoqiligi bilan eʼtiborni tortadi. Sharof Rashidov oʻzbek adabiyotining ulkan vakili sifatida nafaqat badiiy ijodi, balki u asarlarining til va uslubi bilan ham ajralib turadi. Rashidovning asarlarining tiliga xos boʻlgan xususiyatlar uning oʻziga xos sanʼati va oʻzbek adabiyotining rivojiga qoʻshgan hissasini aniq aks ettiradi. Sharof Rashidovning asarlarini oʻqishning eng muhim xususiyatlaridan biri – uning tili sodda va aniq boʻlib, oʻquvchi uchun tushunarli. Yozuvchi murakkab va chuqur maʼnolarni oddiy soʻzlar bilan ifodalashga harakat qilgan. Shu bilan birga, u oʻzbek xalqining kundalik hayotiga xos soʻz va iboralar bilan oʻz asarlarini boyitgan. Bu oʻz navbatida, oʻquvchiga har bir qahramonning ichki dunyosini va ularning kurashlarini toʻgʻri tushinishga yordam beradi. Sharof Rashidovning tilida yuqori darajada emotsionallik mavjud. Uning personajlari, ayniqsa ichki holatlarida va ruhiy jarayonlarida, kuchli dramatismni oʻzida aks ettiradi. Yozuvchi oʻz asarlarini shunday til bilan yozadiki, oʻquvchi qahramonlarning ichki dunyosini va ularning tugʻilishdan boshlab qarorlar qabul qilgan davrlariga boʻlgan qarashlarini his qilishi mumkin. Bu dramaga boy til, oʻquvchini personajlarning his-tuygʻulariga, oʻzgarishlariga, qaygʻu va orzulariga yetaklaydi. Sharof Rashidov oʻz asarlarini metaforalar, obrazlar va taqqoslashlar bilan boyitgan. Uning tilida koʻp hollarda tabiiy obyektlar (masalan, daraxtlar, togʻlar, yomgʻir) orqali insonning ruhiy holati va jamiyatdagi oʻzgarishlar ifodalanadi. Bu obrazlar nafaqat badiiy tasvirni boyitadi, balki oʻquvchiga asarlarning chuqur maʼnolarini anglash imkonini beradi. Uning asarlarida xalq tili va adabiyotiga xos elementlar mavjud. Yozuvchi oʻzining asarlarida xalq maqollaridan, idiomatik ifodalardan, soʻzlashuv tili unsurlaridan foydalangan. Bu esa uning asarlarini milliy va badiiy jihatdan boyitadi. Shuningdek,

² Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. – Тошкент, 2010, 88-бет.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

u o'zbek tilining turli dialektlari va so'zlashuv uslublarini yaxshi bilgan va asarlarida ulardan mahorat bilan foydalangan. Rashidovning tilida lirizm aniq ko'zga tashlanadi. Uning asarlarida ko'pincha tabiat va insonning ruhiy holati o'rtasidagi uyg'unlik tasvirlanadi. Bu lirizm o'zining ma'naviy va axloqiy motivlarida yaqqol aks etadi. Yozuvchi o'zining dilbar so'zlari, hissiyotli tasvirlari va ijtimoiy tahlillari orqali o'quvchiga o'z zamonini, xalqining og'ir yo'llarini, muammolarini tushunishga yordam beradi. Yozuvchi asarlarida, shuningdek, ijtimoiy va ma'naviy masalalar juda kuchli ifodalanadi. U xalqning turmush tarzi, uning har bir qatlamidagi ijtimoiy holatlarini chuqurroq o'rganib, ularni o'z asarida aks ettiradi. Bu uning tilini faqat badiiy, balki ijtimoiy tahliliy jihatdan ham qimmatli qiladi.

Yozuvchi boshqa shoir-yozuvchilar singari iboralar, o'xshatishlar, ko'chimlar va turli xil semantik vositalardan mohirona foydalangan va bu asarning xalqchilligini ta'minlashga xizmat qilgan. Quyida yozuvchining "Bo'rondan kuchli" nomli asaridan olingan, yozuvchining individual mahoratini ochib bergan bir qancha iboralar va ularning izohli lug'atda keltirilgan ma'nolarini taqqoslab ko'ramiz.

"Murotalinig otasi Qatortol qishlog'ida eng qashshoq bo'lib, yil-o'n ikki oy peshona teri to'kardi-yu, aslo biri-ikki bo'lmasdi. U faqat umrining so'nggi damlaridagina kolxozga kirdi-yu, baxt ko'rdi".³ Berilgan ushbu parchada yozuvchi *kun ko'rmoq*, *baxt topmoq*, *baxti kulmoq* kabi iboralardan hamda o'zining individual mahorati va so'z boyligini uyg'unlashtirib, qolaversa, iboraning semantik ma'nosini o'zgartirmagan holda yangi ibora shaklini asariga olib kirgan. Yuqorida keltirilgan yozuvchi kashf etgan iboraga teng keluvchi "baxti kulmoq" iborasining frazeologik lug'atdagi ma'nosi ham xuddi shunday semantik ma'no beradi. ***Baxti kulmoq*** (yoki *ochilmoq*) kimning? baxtiyor hayotga, xushnud onlarga erishmoq; baxtli, baxtiyor bo'lmoq. Ajab emas, baxti ochilib, Gulnor ham yaxshi, obro'li joylarga kelin bo'lsa. Oybek. Tanlangan asarlar.⁴

"Jahl ma'lum fursatga otalik mehridan yuqori keldi, bitta-yu bitta qizga bo'lgan mehr-muhabbat ham, rahm-shafqat ham asab oldida *oyoq osti qilindi*". (o'sha asar, 7-bet) Ko'rinib turganidek *oyoq osti qilindi* iborasi odatda shaxsga nisbatan toptalmoq, hurmatsizlik qilmoq ma'nolarida ishlatiladi. Yozuvchi esa bu iborani insoniy his tuyg'ular borasida biri biridan ustun kelganini tasvirlash uchun ishlatgan. Bu esa o'z navbatida ma'lum bir pragmatik, semantik ma'no anglashga xizmat qilgan. Izohli lug'atdagi ma'no-mazmuniga ham qaraydigan bo'lsak, bu iborani insonlarga nisbatan qo'llanilishini ko'rishimiz mumkin: ***Oyoq osti bo'lmoq*** –

³ Rashidov Sharof "Bo'rondan kuchli" besh jildlik asar, ikkinchi jild, T., 1981-yil, 5-bet

⁴ Rahmatullayev Shavkat "O'zbek tilining frazeologik lug'ati", T., 2022-yil.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Oyoq osti qilmoq 1 nima? – kim? nimani? poymol bo'ldi, tahqirlandi. Varianti: oyoq osti qilinmoq nima? oyoq osti qildirmoq kim? nimani? kimga?⁵

Navbatdagi misolda ham yozuvchining xalq iboralaridan foydalanib, o'zining badiiy mahoratini ishga solgan holda, yangi frazeologik birlik yaratganini ko'rishimiz mumkin: “..Shirinbuloqning yonidan o'tib, poyonsiz qo'riqqa yaqindagina o'zlashtirilgan yangi yerlar *bag'riga kirdi.*” Odatda “bag'riga kirdi” singib ketmoq, ba'zan odamning ichki dunyosiga, qalbiga ta'sir qilgan narsa yoki voqeani ifodalash uchun ham ishlatiladi. Ammo ko'rinib turibdiki, yozuvchi bu yerda butunlay boshqa ma'noda, “ishga sho'ng'ib ketgan dehqon” obrazini chizish uchun qo'llagan va shu orqali individual mahoratini namoyon qilganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

“.. –Ikkisidan birini tanlang, –dedi Oyoqiz qat'iyat bilan, –yo ketmon ,yo to'rt tomon qibla, boshingiz qayoqqa og'sa, o'sha tomonga jo'nang. *Etagingizdan ushlaydigan* odam yo'q”.(o'sha asar 12-bet) *Etag(i)ni ushlamoq* kim? kimning? o'zi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, boshchilik qiluvchi deb tanlamoq. Varianti: etag(i)ni tutmoq; etag(i)dan ushlamoq; etag(i)dan tutmoq.⁶ Izohli lug'atda “etagidan ushlamoq” iborasining berilgan ma'nosi hamda yozuvchi asarda qo'llagan mazmun boshqa-boshqa bo'lib, muallif esa bu ibora orqali “sizni to'xtatib qoladigan odam yo'q” degan mazmuniy butunni yuzaga chiqarish uchun qo'llagan. Albatta, shunga o'xshash holatlarni “Bo'rondan kuchli” nomli asarda ko'plab ko'rishimiz mumkin. Chunki Sharof Rashidovning asarlari xalqchil bo'lib, ular asosan oddiy kishilarning orzulari, mehnati va kurashlari haqida. Yozuvchi qahramonlarini oddiy hayotga yaqinlashtirgan holda, ularning ichki kurashlarini va ijtimoiy masalalarini ham yoritgan. Bu esa o'z navbatida, o'quvchini qahramonlar bilan yaqindan bog'laydi, ularni o'ziga yaqinlashtiradi. Uning asarlarida faqat boy yoki elita vakillari emas, balki oddiy xalq vakillari ham asosiy rol o'ynaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Sharof Rashidov asarlarida xalq ruhiyatining, uning ezgulikka intilishining kuchli aks etishi ham ahamiyatli. Yozuvchi o'z asarlarini shunday tarzda yaratganki, unda xalqning izzat-ikromi, mehribonligi, og'ir va yengil kunlaridagi g'ayrat va sabri ko'rinadi. Rashidovning ko'plab asarlarida xalqning kurashi, uning baxtga intilishi, shu bilan birga, ularning ruhiy dunyosi va ichki kechinmalari yaxshi yoritilgan. Sharof Rashidov o'z asarlarida xalq tiliga juda yaqin, oddiy va samimiy tildan foydalanadi. U xalq og'zaki adabiyotiga, maqollarga, idiomatik iboralarga o'z asarlarida keng o'rin bergan. Bu

⁵ Rahmatullayev Shaykat va boshq. “O'zbek tilining frazeologik lug'ati”, T., 2022-yil.

⁶ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

esa uning asarlarini xalqchil qiladi, chunki o'quvchi o'zining kundalik hayotida ishlatiladigan so'zlar va iboralarga yaqinlashadi. Bu til orqali yozuvchi o'z fikrlarini, tuyg'ularini va voqealarni o'quvchiga yaqinroq va tushunarliroq tarzda yetkazadi. Sharof Rashidovning asarlaridagi xalqchilik uning adabiyotdagi ahamiyatini yanada oshiradi. U xalqning hayotini, uning orzularini, mehnatini, an'ana va qadriyatlarini ko'rsatib, o'zbek adabiyotiga o'zgacha rang va ma'no beradi. Uning asarlaridagi xalqchilik nafaqat badiiy, balki ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega, chunki u xalqning tarixini va ruhiyatini tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рашидов Шароф. Асарлар. Беш жилдлик, Иккинчи жилд. Бўрондан кучли. Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
2. Rahmatullayev Shavkat, Mahmudov Nizomiddin, Xolmanova Zulxumor, O'razova Iqbol, Rihsiyeva Kamola. *O'zbek tili frazeologik lug'ati*. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent: 2022.
3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. –Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.
4. [ziyo@.uz kutubxonasi](mailto:ziyo@.uz) internet ma'lumotlari.